

**TOSHKENT PEDIATRIY TIBBIYOT INSTITUTI**  
**FUQARO MUXOFAZASI KURSI**



**MAVZU № 2. «TINCHLIK VA HARBIY**  
**HARAKATLAR OLIB BORISH DAVRIDA FV**  
**FUQARO MUXOFAZASI».**



## **O'QUV SAVOLLARI**

- 1. Tinchlik davridagi favqulotda vaziyatlar.  
Favqulotda vaziyatlar tasnifini o'rganish.**
- 2. Fuqorolarning tinchlik vaqtidagi FV huquq  
va majburiyatlari.**



**Tinchlik davridagi favqulotda vaziyatlar ikkita asosiy guruhga bo'linadi:**

**I. FV vujudga kelish sabablariga (manbalariga):**

**II. FV zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga):**

**I. FV vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko'ra tasnifi:**

**A. Texnogen tUSDagi FV (sababchisi odam):**

**B. Tabiiy tUSDagi FV (tabiiy ofatlar):**

**V. Ekologik tUSDagi FV:**

**D. FV zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga).**

## **A. Texnologen tushdagi FV (sababchisi odam):**

- 1. Transport avariyaalari va halokatlari:**
- 2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariyaalar, yong'in va portlashlar.**

**Kimyoviy xavfli ob'ekt – muassasa bo'lib, uning avariyaasida odamlarning, hayvonlarning va o'simliklarning zaharli modalar bilan ommaviy shikastlanishi yuzaga kelishi mumkin.**



- **Kimyoviy xavfli obektlar:**

- **Oltingugurt dioksidi** - Olmaliq;
- **Azot dioksidi** - Olmaliq, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Marg'ilon, Termiz;
- **Fenol** - Angren, Navoiy, Farg'ona;
- **Ammiak** - Andijon, Chirchiq, Navoiy, Toshkent.



- **3. Yong'in - portlash** xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariya va halokatlardan, yong'in va portlashlar. (portlaydigan, oson yonib ketadigan materiallar saqlanishi, ko'mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi va jinslarning qo'porilishi).



- **4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariya va halokatlarning yong'inlar:**
- - GES, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug'qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya taʼminoti obʼektlaridagi;
- - gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal obʼektlardagi;
- - gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi.



- **5. Binolardagi avariya va halokatlarning, ularning konstruksiyasini to'satdan buzilishi, yong'inlar va portlashlar.**
- **6. RM va boshqa xavfli, hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariya va halokatlarning:**
  - - texnologik jarayonda RM foydalanadigan ob'ektlardagi;
  - - radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi;
  - - radioaktiv chiqindilar to'plagichlardagi, chiqindixonalardagi shlam to'plagichlardagi va ZM ko'miladigan joylardagi;





- - radioizotop buyumlarning yo'qotilishi;
- - biologik vositalarning atrof- muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.
- O'zR hududida uran qazib olish sobiq sovet ittifoqi uchun eng asosiy mineral-xom ashyo bazasidan biri bo'lgan.
- Buning natijasida ko'p radioaktiv jinslar va chiqindilar paydo bo'ldi. Navoiy shahri yaqinidagi Zaravshon daryosining chap qirg'oqlarida, Uchquduq shahri yaqinida, Namangan viloyatining pop tumani (CHorkesar-1, CHorkesar-2) yaqinida radioaktiv chiqindilar to'plamlari joylashgan.



- **7. Hidrotexnik avariyalar va halokatlari:**
- - suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan halokatli suv bosishlari.
- **13 oktabr kuni xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni.**



- **B. Tabiiy tusdagi FV (tabiiy ofatlar):**
- **Tabiiy ofatlar - bu aholini meъyoriy hayot faoliyatlari sharoitlarini to'satdan buzilishini, shuningdek, moddiy boyliklarini barbod bo'lishini chaqiruvchi tabiatning har xil hodisalari.**
- **1. Geologik xavfli hodisalar:**
- - zilzilalar;
- - er ko'chishlari;
- - tog' o'pirilishlari va boshqalar.



- **2. Hidrometeorologik xavfli hodisalar:**
- - **suv toshqinlari;**
- - **suv to'planishi;**
- - **sellar;**
- - **qor kochkilar;**
- - **kuchli shamollar (dovullar- to'fon);**
- - **jala va boshqalar .**



### **• 3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar:**

- Kasalliklarning tabiati - mikroorganizmlar orqali tarqalishi sababli tabiiy tusdagi FV ga kiradi. O'XI (o'ta xavfli infeksiya)lar qisqa mudatda tarqalish xavfi va og'ir oqibatlariga ega bo'lishi sababli FV hisoblanadi. (bularga):**
  - - o'lat, vabo, sarg'ayma isitma kabi O'XI;**
  - - odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar - epidemik toshmali terlatma, Brill kasalligi, Ku-isitmasi;**
  - - zoonoz infeksiyalar- kuydirgi, quturish;**
  - - virusli infeksiyalar – OITS (SPID).**



- **Epidemiya** - yuqish manbaiy bitta yoki yuqish omili bir xil bo'lgan odamlarning guruh bo'lib (bir aholi punktida 50 kishi va undan ortiq) yuqumli infeksiyalar bilan kasallanishi;
- - o'lim yoki kasallanish darajasi o'rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo'lgan vaziyat;
- - zaharli moddalar bilan zaharlanish - jabrlanganlar soni 10 kishi, vafot etganlar soni -2 kishi va undan ortiq;
- - oziq - ovqatdan ommaviy zaharlanish - jabrlanganlar soni – 10 kishi, vafot etganlar soni- 2 kishi va ortiq.
- **Epizootiya** – hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo'lishi.
- **Epifitotiya** - o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishi.



- **V. Ekologik tUSDagi FV:**
- **Ekologiya (grekchadan «oykos»- uy, uy-joy va «logos» - taъlimot) - tirik organizmlarning turmush shart - sharoitlari va organizmlarning va yashayotgan muhit orasidagi o'zaro aloqadorligini o'rganadigan fan.**
- **1. Litosferaning (tuproq, er osti) o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:**
- - halokatli ko'chkilar, er yuzasining o'pirilishi, siljishi (foydali qazilmalarni qazish chog'ida va boshqalar);
- - tuproq va er ostining sanoati tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, pestisidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

## **2. Atmosferaning (havo muhiti) o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:**

- havo muhitining zararli moddalar bilan ifloslanishi;**
- katta ko'lamdagi kislotali zonalar hosil bo'lishi;**
- radiatsiyaning yuqori darajasi.**

## **3. Hidrosferaning o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:**

- suvlarining zararli moddalar bilan ifloslanishi;**
- er osti suv darajasining oshishi;**
- ichimlik suvning keskin etishmasligi.**





## **D. FV zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab tasnifi:**

### **1. Lokal FV:**

- 10 dan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan;**
- 100 gacha odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan;**
- moddiy zarar (FV yuz bergan kunda) eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan oshmaydi;**
- FV ko'lami -obyekt (zonasi obyektlar hududi tashqarisiga chiqmaydigan).**



## **2. Mahalliy FV:**

- 10 - 500 odam jabrlangan;**
- 100 - 500 odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan;**
  - moddiy zarar (FV yuz bergan kunda) eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 mln. baravaridan ko'p emas;**
  - FV ko'lami (zjligi) aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan.**

### **3. Respublika miqyosida FV:**

- 500 ortiq odam jabrlangan;**
- 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan;**
- moddiy zarar (FV yuz bergan kunda) eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 mln. baravaridan ortiq;**
- FV ko'lami (zonasi) viloyat tashqarisiga chiqadi.**

### **4. Transchegara (davlatlararo) FV:**

- oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yohud FV chet elda yuz bergan va O'zR hududiga daxl qiladigan (Misol uchun: Chernobil, Orol dengizi fojeasi).**



## **2-oquv savoli:**

- Fuqarolarning tinchlik vaqtidagi FV huquq va majburiyatlari.**

**O'zR Oliy Majlisi qaroriga binoan, 1999 y. «Aholini va hududlarni tabiiy, hamda texnogen xususiyatli FV dan muhofaza qilish to'g'risida» O'zR qonuni qabul qilindi.**

**Bu qonuning 15 – 16 - moddasida fuqarolarning tinchlik vaqtidagi FVda huquq va majburiyatlari belgilangan.**



- **Fuqarolarning tinchlik vaqtidagi FV huquqlari:**
- - FV ro'y berganda odamlarning hayotti, sog'liqq'i va shaxsiy mol-mulklari muhofazalanishi;
- - KMV, SHMV (kollektiv va shaxsiy mudofaa vositalari) va boshqa mol- mulklardan foydalanish;
- - xavf-xatar darajasi to'g'risida, hamda zarur xavfsizlik choralar haqida xabardor bo'lish;
- - aholini va hududlarni FV muhofaza qilish masalalari yuzasidan organlarga murojaat etish;
- - FV ro'y bergan zonalarda ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiyalar va boshqa imtiyozlar olish;



- - FVda majburiyatlarini bajarish chog'ida sog'lig'iga etkazilgan zarar uchun kompensatsiyalar, hamda imtiyozlar olish;
- - aholini va hududlarni FV muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog'ida orttirgan kasalligi munosabati bilan mehnat qobiliyatini yo'qotganda, nogiron bo'lgan xodimlarga belgilangan tartibda nafaqa olish;
- - FVda majburiyatlarini bajarish chog'ida halok bo'lganligi yoki vafot etgan shaxslarning oila aʼzolari uchun belgilangan tartibda nafaqa olish.



- **Fuqarolarning FV muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari:**

- - xavfsizlik choralariga rioya etishlari, FV ro'y berishiga olib kelishi mumkin bo'lishiga yo'l qo'ymasliklari;
- - muhofazalanishning asosiy usullarini, jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini o'rganishlari;
- - FV ro'y berishiga olib kelishi mumkin bo'lgan avariyaalar, ofatlar va halokatlarda to'g'risida tegishli organlarga xabar berishlari.



# **Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тиббий таъминотини ташкилий шаклларини асосий ривожланиш давлари.**

**1. Ҳарбий тиббиётни ривожланишида давлат арбоблари, саркардалар ҳам катта рол ўйнаган. Буюк саркарда Амир Темур аскарларнинг соғлиғини сақлаш бўйича тавсиялар берган ва ўзининг лашкарбошиларидан шахсий таркибнинг соғлиғини сақлаш бўйича барча тадбирларни амалга оширишни қаттиқ талаб қилган.**





**2. Ҳозирги Ўрта ва Марказий Осиё худуди илгаридан тарихий номи билан ТУРКИСТОН деб аталган.**

**Марказий Осиё цивилизациянинг қадимий ўчоғи бўлиб, дунёга ўз вақтида буюк шифокорларни-олимларни етказган.**

**Абу-Али ибн Сино, Абу Мансур Камари, Ғиёсиддин Мухаммад, Нажибуддин Самарқандий, Умар Чакманий ва бошқаларнинг кўлёзмаларидан кўп асрлар давомида дунёнинг барча мамлакатларида кўплаб шифокорлар авлоди фойдаланган.**



**3. Ҳарбий тиббиёт Туркистонда Сомоний, Темурий ва Бобурийлар (IX-XVI а.а.) давлатлари вақтида пайдо бўлган. Ушбу замонларда йирик кўпсонли ҳарбий юришлар бўлган ва табиийки кўшинлар тиббий таъминланган.**

**«Бобурнома»дан мисол келтирганда, Бобурнинг саройида Юсуф Табиб шифокори ҳар хил ҳарбий юришларда қатнашиб ярадорларга тиббий ёрдам ташкиллаштириш билан чегараланмасдан, балки касалликларни профилактикасига катта аҳамият берган: чодирларни тўғри жойлаштириш, тоза сув билан таъминлаш, жисмоний машқлар бажариш.**



**4. Россия империяси (1864-1875й) Туркистонни босиб олгандан сўнг, XIX асрнинг иккинчи яримида ўзгарган. Туркистон худуди бешта: Сирдарё, Фарғона, Самарқанд, Каспийорти, Семиреченск вилоятларига бўлинган. Россия империясининг бошқа ўлка ва вилоятларидан фарқли ўлароқ бу ерда «**Харбий-админстратив бошқарув тизими**» ўрнатилган ва харбий министрликга бўйсундирилган. 1867 йилда Туркистон генерал-губернаторлиги ташкил этилиши билан унинг таркибида округ харбий-тиббий бошқарма таъсис этилган. Бошқарма таркибида инспектор ва тиббий ҳамда фармацевтик қисмлар бўйича ўринбосарлари бўлган.**



**Чекка жойларда, вилоят ва уезд ҳарбий врачлари лавозимлари таъсис этилган. Туркистон улкасининг йирик шаҳарларида стационар тиббий муассасалар барпо этилди. Улардан биринчиси Тошкентда, **1868 йил 8 сентябрда 30 койкали** лазарет очилди ва **1870 йили унинг ўрнида 415 койкали** ҳарбий госпитал ташкил этилди. Улкани бошқариш «холати»га асосан ҳар бир уездга битта врач ва битта акушер тайинланган ҳамда стационар ва амбулатор тиббий ёрдам ташкиллаштирилган. Туркистондаги рус экспедицион армиясини тиббий таъминлаш округ ҳарбий тиббий бошқармаси томонидан ташкил этилган.**



**Саволлар бўлса  
мархамат!!!**